

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM VA TARBIIYA JARAYONIDA, MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA TINGLOVCHILARNING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Jumanazarov Sirojiddin Salaydinovich

Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi kafedra mudiri,  
t.f.n., dotsent.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10980642>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida tinglovchilarning raqamli kompetentligini shakllantirish masalalari qaralgan

**Kalit so'zlar:** raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, axborot savodxonligi, mediasavodxonlik, kommunikativ savodxonlik.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы формирования цифровой компетентности слушателей в условиях цифровой трансформации.

**Ключевые слова:** цифровизация, цифровые технологии, информационная грамотность, медиаграмотность, коммуникативная грамотность

**Abstract.** This article discusses the issues of developing digital competence of listeners students in the context of digital transformation.

**Keywords:** digitalization, digital technologies, information literacy, media literacy, communication literacy

**Kirish.** Hozirgi vaqtda raqamli transformatsiya jarayoni nafaqat iqtisodiyotning barcha sohalarida, balki ta'limda ham muayyan o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Ta'limga raqamli texnologiyalarning samarali tadbiiq etilishi hamda unga bo'lgan ehtiyojning oshib borishi mazkur tizimda ishlayotgan pedagoglardan raqamli qurilmalardan samarali foydalanish kompetentligini talab etadi.

Raqamli transformatsiya ta'lim muhitiga kiritilgan raqamli texnologiyalar doirasining kengayishiga, raqamli ta'lim, raqamli didaktika, raqamli ta'lim mazmuni kabi tushunchalarning paydo bo'lishiga olib keladi

**Tahlil va natijalar.** Malaka oshirish jarayonida turli fan yo'nalishlari kesimida tinglovchilar bilan olib borilgan kuzatuvlar va statistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur tizimda faoliyat yuritayotgan pedagoglarning raqamli kompetentligi yetarli darajada shakllanmagan. Buni tinglovchilar o'rtasida o'tkazilgan raqamli savodxonligini aniqlash hamda ta'limning raqamli transformatsiyasiga bo'lgan munosabatini o'rganish maqsadida o'tkazilgan turli so'rov natijalarida ham ko'rish mumkin.

Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazida turli yo'nalishlar kesimida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra tinglovchilarning deyarli hammasi ta'limning raqamli transformatsiyasi bo'yicha ijobiy istiqbolni ko'rayotganligini, biroq ayni paytda joylarda raqamli infrastrukturani hamda raqamli o'quv-metodik materiallarning yetarli emasligi va bu borada ota-onalarning turli munosabatlari kabi muayyan muammolarni keltirmoqdalar.

“Raqamli O'zbekiston–2030” strategiyasining II bob 2.5-bandi “Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim berish va malaka oshirishning ustuvor yo'nalishlari” deb nomlanadi. Mazkur badda aholining raqamli savodxonligini shakllantirishda quyidagilarga e'tiborni qaratish ta'kidlangan:

- axborot savodxonligi (qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni topish qobiliyati);
- kompyuter savodxonligi (raqamli qurilmalar bilan ishlash qobiliyati);
- media savodxonligi (ommaviy axborot vositalarini tanqidiy o‘rganish imkoniyati);
- kommunikativ savodxonlik (zamonaviy raqamli aloqa vositalaridan foydalanish qobiliyati);
- texnologik innovatsiyalarga (yangi texnologiyalarga) ijobiy munosabatni shakllantirish [1].

Milliy markazda tinglovchilarning raqamli savodxonligini aniqlash borasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra tinglovchilarning axborot savodxonligi-65,8%, kompyuter savodxonligi-74,3%, media savodxonligi-65,3%, kommunikativ savodxonligi-63,2%, raqamli innovatsiyalarga munosabati-71,1% ekanligi ma’lum bo‘ldi [2].

Olingan ma’lumotlarning umumiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, tinglovchilarning deyarli yarmi ta’lim jarayonida raqamli resurslardan faol foydalanishini, o‘rganish uchun mavjud raqamli resurslarni mustaqil topa olishlarini, ularni baholay olishlarini va o‘zlariga mos bo‘lgan resurslar yarata olishlarini bildirganlar.

Shu bilan birga, ba’zi tinglovchilar mahalliy raqamli resurslardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish uchun mazmuni yetarli emasligini va tahrirlash asosida o‘z resurslarini ishlab chiqayotganligini, ba’zilari esa o‘z faniga oid mahalliy resurslarni bilmasliklari ham ma’lum bo‘ldi. Shuningdek, ta’limning raqamli transformatsiyasi sharoitida o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish hamda takomillashtirish uchun axborot resurslaridan foydalanishni rejalashtirishdagi muammolar va qiyinchiliklarni ko‘rsatdilar. “O‘qituvchi-raqamli muhit-o‘quvchi” modeli doirasida ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar hamda bu boradagi ota-onalarning roli haqida ham fikrlar bildirishgan. Shuningdek, so‘rovnoma asosida pedagoglarni raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishga yo‘naltiruvchi uslubiy yordamga bo‘lgan ehtiyojlari ham aniqlangan [3].

Tinglovchilarning deyarli hammasi raqamli kompetentlik imkoniyatlarini kengaytirishni, sohasida yuqori darajadagi raqamli kompetensiyaga ega bo‘lishni istashadi. Bu borada amaliy mashg‘ulotlarda quyidagi dasturlardan (OneDrive bulutli saqlash, Learning Apps.org, Canva.com, Phet.colorado.edu, vascak.cz, Ispring, Mindomo va h) foydalanilmoqda.

Tahlil natijalariga ko‘ra malaka oshirish jarayonida tinglovchilar quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha maslahatlar olishi va malaka oshirishni tashkil etishdan ko‘proq manfaatdor ekanliklari ma’lum bo‘ldi:

- o‘quv faoliyatida zamonaviy raqamli qurilmalardan va ta’lim resurslaridan samarali foydalanish malakalarini rivojlantirish;
- raqamli muhit va raqamli ta’lim resurslarini o‘rganish va yarata olish;
- raqamli ta’lim resurslarini ishlab chiqish texnologiyalarini o‘zlashtirish;
- raqamli texnologiyalar va zamonaviylashtirilgan pedagogik texnologiyalar integratsiyasiga asoslangan innovatsion o‘qitish texnologiyalaridan, foydalanish.
- internet texnologiyalari asosida o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishning texnologik jihatlari bilan tanishish.

**Xulosa.** Ta’limning raqamli transformatsiyasi jarayoni tizimda ko‘pgina o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Mazkur o‘zgarishlar nafaqat texnik vositalar ko‘rinishda, balki ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarning dunyoqarashida ham o‘z aksini topmoqda. Ta’lim jarayoni doimo pedagogik tadqiqot doirasida murakkab va o‘ziga xos hisoblanadi. Bu esa mazkur sohada

olib borilayotgan tadqiqot ishlarida yetarlicha tahliliy ma'lumotlarga suyanishni talab etadi. Ta'lim tizimiga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy qilinishi esa tadqiqot mazmunida yangicha yondashuvlarga sabab bo'lmoqda. Bu borada ta'limni raqamlashtirish jarayonida o'qituvchilarning raqamli kompetentligini shakllantirish va bu borada olib borilishi kerak bo'lgan ilmiy yondashuvlar alohida mazmun mohiyatga ega. Yuqorida keltirilgan tahlillar va yechimlar malaka oshirish jarayonida foydalanilayotgan dasturlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

#### REFERENCES

1. “Raqamli O‘zbekiston-2010” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zR Prezidentining Farmoni PF-6079. 05.10.2020 y.
2. Жуманазаров С.С. Тингловчиларнинг рақамли технологиялардан фойдаланиш кўникмаларини ривожлантириш// FIZIKA, MATEMATIKA va INFORMATIKA// ilmiy-uslubiy jurnal. T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti. 2023.№2
3. Jumanazarov S.S. Ta'limda raqamli texnologiyalar. Uslubiy qo'llanma. -Toshkent: 2023. – 46 b